

NAMANGAN VILOYATIDA MAHALLIY SANOATNI OQILONA JOYLASHTIRISH ASOSIDA RIVOJLANTIRISH YO‘LLARI

Fuzaylov Sarvar Abdusamatovich
Alfraganus University katta o‘qituvchisi

Annotatsiya. Maqolada Namangan viloyati mahalliy sanoatining joylashuvi va rivojlanishidagi nomutanosibliklari va muammolari o‘rganilgan hamda uni ilmiy asoslangan mezonlar bo‘yicha oqilona joylashtirish asosida yanada rivojlantirish bo‘yicha ilmiy takliflar va amaliy tavsiyalarni ishlab chiqilgan.

Kalit so‘zlar: sanoat, mahalliy sanoat, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish, sanoatni transformatsiyalash, sanoat klasterlari, mintaqqa.

Аннотация. В статье изучены непропорциональность и проблемы размещения и развития местной промышленности Наманганской области, а также разработаны научные предложения и практические рекомендации по дальнейшему развитию местной промышленности на основе оптимального размещения ее на основе научных критерии.

Ключевые слова: промышленность, местная промышленность, оптимального размещения производительных сил, промышленный кластер, трансформации промышленности, регион.

Abstract. In the article, the imbalances and problems of the location and development of the local industry in the Namangan region are studied, and the prospects of its development are calculated based on the development of scientific proposals and practical recommendations for its rational placement according to scientifically based criteria.

Keywords: industry, local industry, optimal placement of productive forces, industrial transformation, region.

Kirish. Namangan viloyati sanoatini rivojlantirishda so‘nggi besh yilda qator ijobiy natijalarga erishilgan bo‘lishiga qaramasdan, sanoat tarmoqlari va korxonalarida turli xil darajada nomutanosibliklar mavjudligi hamda viloyatda ishlab chiqarish kuchlarini samarali joylashtirish mexanizmi shakllanmaganligi sababli aholi jon boshiga sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish bo‘yicha respublika o‘rtacha ko‘rsatkichidan orqada qolmoqda [1]. Shuning uchun mintaqada sanoatni transformatsiyalash jaraenlarini samarali tashkil qilish, mahalliy sanoatni oqilona joylashtirish asosida uni jadal rivojlantirish masalasini hozirgi kundagi eng dolzarb muammolardan biriga aylantirdi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi. Hududiy sanoat majmuasini barqaror rivojlantirish masalalariga M.I.Maslennikov, S.N.Rastvorseva, O.A.Romanova, A.I.Tatarkin, S.N.Yashin singari MDH davlatlari olimlari o‘z ilmiy tadqiqot ishlarida alohida e‘tibor qaratganlar. O‘zbekistonda T.M.Axmedov, M.A.Mahkamova, Sh.X.Nazarov, A.M.Sodiqov, F.T.Egamberdiyev, A.T.Yusupov, A.A.Qayumov, A.M.Qodirov, G.P.G‘ulomova va boshqalar tomonidan

mintaqalarda ishlab chiqarish kuchlarini optimal joylashtirish va hududlarni ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishning nazariy-metodologik jihatlari o'rganilgan.

Namangan viloyati mahalliy sanoatini oqilona joylashtirish va rivojlantirishga qaratilgan taklif va tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Tadqiqot jara'ida tizimli va qièsiy, matematik va statistik hamda makroiqtisodiy ko'rsatkichlarni guruhlashtirish, korrelyasion- regression tahlil, prognozlash va boshqa tadqiqot usullaridan keng foydalanilgan.

Tahlil va natijalar. Mamlakat ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiètida ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish muhim ahamiyatga ega bo'lib, bu qonuniyat mintaqalarga ham tegishli. Sanoat korxonalarni joylashtirish va rivojlantirishdagi nomutanosibliklar natijasida Namangan viloyati yalpi sanoat mahsulotlarining 40,4 foizi Namangan shahriga, 17 foizi To'raqo'rg'on, 6,3 foizi Uchqo'rg'on, 5,2 foizi Chust, 4 foizi Kosonsoy, 2,3 foizi Chortoq, 2 foizi Yangiqo'rg'on, tumanlari hissasiga to'g'ri kelmoqda. Hududlar kesimida mahalliy sanoatni rivojlanishida Namangan shahrining mavqei nisbatan kamaygan (57,6 foizdan 50,5 foizgacha). Deyarli barcha tumanlarda (Uchqo'rg'on dan tashqari) hududiy sanoatning ulushi oshgan [3]. Hozirda hududiy sanoatning eng yuqori ulushi To'raqo'rg'on (7,8 foiz), Uychi (5,6 foiz), Chust (6,5 foiz), Namangan (5,9 foiz) tumanlariga to'g'ri kelmoqda. Hududiy sanoati past rivojlangan tumanlar qatoriga Kosonsoy (2,4 foiz), Uchqo'rg'on (2,4 foiz), Yangiqo'rg'on (3,1 foiz), Norin (3,2 foiz) tumanlarini ko'rsatish mumkin [4].

Tumanlararo tafovut hududiy sanoatda uch martadan yuqori bo'lib, mahalliy aholi talablariga va mavjud imkoniyatlarga mos kelmaydi. Rivojlanish indeksiga ko'ra, tumanlar o'rtasida sanoatning joylashganligidagi farq 10 martani tashkil qilmoqda.

Har qanday mintaqaning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqièti ishlab chiqarish kuchlarining optimal joylashtirilganligiga bevosita bog'liq bo'lib, bu mintaqada sanoat korxonalarini samarali joylashtirishga ta'sir qiladigan omillarni tahlil qilishni taqozo qiladi.

Mazkur omillar asosida Namangan viloyatining barcha tumanlarda sanoat korxonalarini joylashtirish uchun eng qulay imkoniyatlarga ega bo'lgan 63 ta mahalla aniqlanib, ularga kichik va o'rta sanoat korxonalarini joylashtirish transaksion harajatlarni sezilarli kamaytirish mumkinligi aniqlangan.

Viloyatda kichik va o'rta korxonalarni mavjud mineral xom ashyo qazilmalari asosida tashkil qilish muhim ahamiyatga ega. Hududda neft, oltin, yod, tog' shpati, tabiiy toshlar, ohak, qum shag'al, qazilma konlari mavjud. Hozirda 49 ta foydali qazilma, mineral xom ashyodan faqat 15 tasi o'zlashtirilgan xolos (jadval).

Yuqori salohiyatga ega mineral xom ashe resurslarini qayta ishlash, oziq-ovqat, to'qimachilik va mebel ishlab chiqarish korxonalarini manzilli qo'llab-quvvatlash, ishlab chiqarish kuchlarini oqilona joylashtirish asosida tumanlararo sanoat rivojlanishidagi tafovutlarni kamaytirish ijobiy samara beradi.

Tadqiqot natijalari 2024-2030 yillarda viloyatda umumiy sanoat o'sish sur'ati 2,3, mahalliy sanoat esa 3,4 baravarga oshishiga erishish mumkinligini ko'rsatdi [2].

Mos ravishda ushbu muddatda YAHMda sanoatning ulushi 15 foizdan 30, mahalliy sanoatning jami sanoatdagi ulushi esa 37 foizdan 60 foizgacha oshadi.

Jadval

Namangan viloyati hududlarida joylashgan va foydalanish mumkin bo'lgan mineral xom ashyo konlari

	Viloyat tumanlari	Mineral xom ashyo konlari	Mahsulot ishlab chiqarish
1	Mingbuloq	Yod	Tibbiyot va sog'liqni saqlash, veterinariyada, sintetik kauchuk ishlab chiqarishda foydalanish
2	Pop	Flyura shpati	Metallurgiya, atom energetikasi, kimyo sanoati foydalaniladi
3	Chust	Tabiiy toshlar	Rangli travertin sifatida ishlatish mumkin
4	Chust	Mineral xom ashyo	Mineral tola ishlab chiqarish
5	Uychi, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Pop, Chust	Qum shag'al	Qurilish materiallari
6	Uychi, Norin, To'raqo'rg'on, Kosonsoy, Pop, Chust, Yangiqo'rg'on	G'isht va kafel xom ashyolari	Yuqori markali g'isht va kafel ishlab chiqarish

Jadvaldan ko'rinib turibdiki, Namangan viloyati YAMH tarkibida sanoat ulushining o'zgarishiga ta'sir qiluvchi qator omillar o'rtasidagi korrelyasion-regression bog'liqlik o'rganilgan va shu asosda ekonometrik model ishlab chiqilib, 2030 yilgacha YAHMda sanoat ulushi o'zgarishining 3 xil ssenariy bo'yicha prognoz ko'rsatkichlari ishlab chiqilgan [5]. Birinchi inersion (bazis) variant oxirgi 10 yilda shakllangan sanoat (hududiy) hajmining o'sish tendensiyalari asosida hisoblangan. Ikkinchi faol (optimistik) variant mavjud salohiyat va imkoniyatlardan samarali foydalanishga asoslangan. Uchinchi passiv (pessimistik) variant kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan iqlim o'zgarishlari va boshqa xavf- xatarlarning salbiy ta'siriga asoslangan.

Xulosa.

1. Mintaqada sanoat korxonalarini oqilona joylashtirishga ta'sir qiluvchi ishlab chiqarish, infratuzilma, mineral xom ashyo, yer, suv va ishchi kuchi resurslari kabi omillarni hisobga olish maqsadga muvofiqdir.

2. Sanoat korxonalarini oqilona joylashtirish asosida istiqbolli hisoblangan mahalliy sanoatni shakllantirish imkoniyati omillarning bir-birini to'ldira olish nuqtai nazaridan o'rganilganda, amaldagi "kichik sanoat zonalari" modeli bilan birga uy xo'jaliklari tizimida alohida fuqarolar ishtirokidagi ishlab chiqarish kooperativlarini tashkil etish lozim bo'ladi.

3. Hududlarda qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishi, xizmatlar ko'rsatish tizimlariga sanoat elementlarini olib kirishni ko'zda tutuvchi mahalliy ishlab chiqarish klasterlarini barpo etish maqsadga muvofiqdir. Jumladan, viloyatning Yangiqo'rg'on, Pop, Chust tumanlarida uzumchilik, Uchqo'rg'on, Norin, Mingbuloq tumanlarida baliqchilik, Chortoq, Kosonsoy, Yangiqo'rg'on tumanlarida

turizm klasterlarini tashkil etish kerak bo‘ladi.

4. Yirik korxonalar va mahalliy kichik korxonalar o‘rtasidagi kooperatsiya jaraenidagi mahsulotlarning o‘zaro va eksportga yo‘naltirilgan transportirovka xarajatlarining 50 foizigacha bo‘lgan qismini davlat byudjetidan subsidiyalar ajratish hisobiga kompensatsiya qilish kooperatsiya munosabatlariga yirik korxonalar moyilligini oshiradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 9 iyun 2021 yildagi “Hududlarning sanoat salohiyatini oshirishga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida” PF-6244 sonli Farmoni. <https://lex.uz/docs/5449564>

2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022 yil 28 yanvardagi “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60 Farmoni // <https://lex.uz/docs/5841063>

3. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022 yil 25 apreldagi “2022-2026 yillarda Namangan viloyati hududlarini kompleks ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirish va aholi turmush darajasini yanada yaxshilashga doir qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 211-son Qarori // <https://lex.uz/ru/docs/5984308#5984924>

4. Abulqosimov X.P., Murodxo‘jayeva F.M. Namangan viloyati sanoatini transformatsiyalash jarayonlarining mintaqaviy xususiyatlari// J. Iqtisod va moliya// Ekonomika i finansy, 2023, №1, b.2-7.

5. Abulqosimov X.P., Abulqosimov M.X., Murodxo‘jayeva F.M. Davlatning mintaqaviy siyosati va hududlar rivojlanishini tartibga solish yo‘llari. Monografiya.- Namangan:”Namangan”, 2016, 128 bet.